

**YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM:
KECHA , BUGUN , ERTAGA**

Arziqulova Surayyo

ShDPI Pedagogika fakulteti maktabgacha ta’lim kafedراسi mudirasi

Xushvaqtova Marjonabonu

SHDPI Pedagogika fakulteti maktabgacha ta’lim yo‘nalishi

1-kurs talabasi. Tel: 77 034 13 04

Annotatsiya: Barchamizga ma’lumki Yangi O‘zbekistonimizda biz kutmagan darajadagi o‘zgarishlar ro‘y berayotganini yurtdoshlarimiz sezib , ko‘rib turibdi . Ayni damda ta’limning poydevori bo‘lmish Maktabgacha ta’lim tizimiga davlatimiz tomonidan bir qator tizimli Qonunlar , Qarorlar Farmonlar va Dasturlar ishlab chiqilmoqda .

Kalit so‘zlar: kecha, bugun , ertaga, dasturlar, Maktabgacha ta’lim, qaror ,qonun, farmon,

Kecha

Kechagi kunimizda mamlakatimizda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rivojlanishi past bo‘lgan . Bunga sabab mutasaddilarning mas'uliyatsizligi yoki e'tiborsizligi , belgilanagan ishlarning bajarilmasdan qolishi, nodavlat tashkilotlarning qonunlarga rioya qilmasdan o‘zboshimchalik bilan ish tutganligi bo‘lishi mumkin. Maktabgacha ta’limni rivojlantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy bazasining to‘liq rivojlanmaganligi tufayli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni ta’minlashga imkon bermasdi. Maktabgacha ta’lim sohasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki , maktabgacha ta’limni boshqarishning amaldagi tizimi mavjud muammolarni bartaraf etish va bu sohani yanada rivojlantirishda qarorlarni ishlab chiqarish va joriy etish imkoni bo‘lmagan. Keyinchalik maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga, tubdan isloh qilishga doir ishlar olib borildi va bir qancha vazifalar qo‘yildi . Buning isboti sifatida 1997- yil 29- avgustda 463-I-soni bilan qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " ni keltirishimiz mumkin.

Bugun

Bugungi kunda mamlakatimizda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda ,shular qatoriga Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ham kiradi. Bu sohani rivojlantirishda davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan yordamlar ham diqqatga sazovordir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga hali bunday yordamlar ko‘rsatilmagan. Maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qabul qilingan Prezident qarorida keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutildi. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, tizimni tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv

tuzilmasini tashkil etish choralari belgilandi. Bugungi kunga kelib yuqorida keltirilgan dasturlar bekor qilinib ularning o'rniga yangi dasturlar qabul qilindi. O'zbekiston respublikasining 2020- yil 23- sentyabrdagi O'RQ--637- sonli " Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini misol qilishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu mas'uliyatni Universitetlarning Pedagogika fakulteti o'z zimmasiga oladi . Qabul qilinayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, bolalarga eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadigan yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifa edi. Ilg'or xorijiy davlatlar va Koreya Respublikasi tajribasidan kelib chiqib, respublikamizning barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi yo'lga qo'yildi. Uning asosiy maqsadi bolalarni o'qitish emas, balki ularning o'qishga intilishlarini rivojlantirishdan iborat. Mazkur dastur besh tamoyilni o'zida mujassamlashtirgan. Bular jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish, aqliy rivojlanish, ijodiy rivojlanish kabilardan iborat.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan "Davlat talablari" va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi qabul qilinib , hozirda zamonaviy davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachilari bolalarni erkin qo'ygan holda faollik markazlarida ishlash orqali yangi ma'lumotlarni , yangi bilimlarni berib bormoqda. Markazlarda ishlash bolalarda kreativ fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantiradi va dunyoqarashini shakllantirib boradi.

Bugun maktabgacha ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor, qabul qilinayotgan qonunlar barchasi jamiyatga barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalash uchun tashlanayotgan qadamlardir. Shu yilning sentyabridan oliy ma'lumotga ega pedagoglar uchun bazaviy tarif stavkalari yana 30 foiz-ga oshirildi. Bu ham malakali kadrlarni sohaga jalb qilib, yaratilgan imkoniyatlar doirasida munosib faoliyat yuritishni ta'minlaydi.

Ertaga

Yangi O'zbekiston respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ertangi kunida ya'ni kelajakda bundanda ko'p o'zgarishlar yuz berishi kutilmoqda. Yangi O'zbekistonda " O'zbekiston--2030 " konsepsiyasi qabul qilindi . Bunda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va boshqa tashkilotlar rivojlanishi bosqichma bosqich rivojlantirish va yanada takomillashtirib, kelajak avlodga tarbiya berishda bir qator qulayliklar yaratishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasining “Yo‘l xaritasi”da 2019—2024 va 2025—2030-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilanadi.

2030-yilgacha maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan bolalar miqdorini joriy 38,1 foizdan 80,8 foizgacha orttirish vazifasi qo‘yilgan. Shu bilan birga, MTV tomonidan ta’lim muassasalari quvvatlarning kuchaytirilishi davom ettiriladi: 2021-yilga kelib o‘rinlar miqdori yangi MTMLarni ochish hisobiga 56,8 foizga yetgan bo‘lsa , 2030-yilga kelib — 132,3 foizga yetishi , hamda davlat-xususiy sherikligi va respublikaning chekka tumanlari uchun dolzarb muqobil maktabgacha ta’lim shakllari rivojlantiriladi. Keyingi yillarda pedagogik va boshqaruv kadrlariga alohida e’tibor berilayotganligi sababli Ishlar ikki yo‘nalishda olib boriladi: pedagoglar miqdorini orttirish va maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish. Konsepsiya bilan belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar respublika miqyosidan viloyat, tuman va shahar darajasigacha tushadi hamda ushbu natijalarga erishish uchun qay miqdorda mablag‘larining zarurligi to‘g‘risidagi hisob-kitoblar bilan asoslanadi.

XULOSA

Bir so‘z bilan aytganda Kecha maktabgacha ta’lim tashkilotimiz yuksak darajada rivojlanmagan , Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rivojlantirishga oid ishlar va chora tadbirlar ko‘rilmagan edi . 2016-2017- yillardan boshlab Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga alohida e’tibor berilib juda ko‘p o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda va davlatimiz tomonidan ko‘plab yangidan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari barpo etilmoqda. Bugungi kunga kelib Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rivojlangan sayin rivojlanyapti va bu borada dasturlar ham yo‘lga qo‘yilgan. Bolalarga sifatli bilim berish maqsadida kadrlar tayyorlash borasida ham alohida dasturlar chiqilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ertangi kunga rejalashtirilayotgan ishlar tufayli bolalar qamrovi orttirilishi ham ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi O‘zbekistonda nodavlat maktabgacha ta’lim: kecha , bugun va ertaga. Abdurashit M.
2. Yangi Maktabgacha ta’lim: kecha, bugun , ertaga . Nasiba Erxonova . Ma’rifat gazetasi.
3. Yangi Maktabgacha ta’lim: kecha, bugun, ertaga. Jonto‘rayeva N.
4. Maktabgacha ta’lim Kecha va Bugun . Zarnews.uz.
5. " Maktabgacha pedagogika" Sh . Sodiqova.